



### XALQARO IQTISODIY YOZISHMALAR VA ULARNING TARJIMA TASNIFI

**Farida NE'MATOVA**

PhD-researcher

Uzbekistan State World Languages University

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiy tarjima tushunchasi tarjimashunoslikning maxsus yo'nalishi sifatida ko'rib chiqilib, uning nazariy va amaliy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot iqtisodiy tarjimaning madaniyatlararo ikki tilli muloqotga asoslangan ko'p bosqichli murakkab jarayon ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, turli funksional uslub va janrdagi matnlarni qayta yaratish jarayonida tarjimon duch keladigan asosiy qiyinchiliklar - leksik va terminologik mos kelmaslik, iqtisodiy tushunchalarni talqin qilishdagi murakkablik, sintaktik tuzilmalarning murakkabligi va fon bilimning yetishmasligi - aniqlanadi. Tadqiqot davomida talabalar orasida uchraydigan tarjima xatolari: noto'g'ri o'qish (miscue), pragmatik tahlilning yo'qligi, yuridik va iqtisodiy terminlarning noto'g'ri talqini, idiomalar va metaforalarni mos tarjima qila olmaslik kabi holatlar yoritiladi. Xulosa sifatida iqtisodiy tarjimaning fanlararo sohaga mansubligi va yuqori til kompetensiyasi, analitik tafakkur hamda mustahkam fon bilimni talab qilishi qayd etiladi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy tarjima, biznes tarjima, terminologiya, mos kelmaslik, pragmatik tahlil, miscue, leksik xatolar, funksional uslublar, madaniyatlararo muloqot, fanlararo yondashuv.

Globalizatsiya jarayoni o'tgan asrdan boshlab jahon miqyosida chuqur o'zgarishlarga sabab bo'lib, ko'plab to'siqlarni bartaraf etdi hamda butun dunyo bo'ylab axborotga keng kirish imkonini yaratdi. Bu jarayon global biznes faoliyatining barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, xalqaro iqtisodiy aloqalar va savdo jarayonlarining yanada jadallashuviga olib keldi. Shu munosabat bilan iqtisodiy matnlarning tarjimasini o'rganish zamonaviy tarjimashunoslikning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Iqtisodiy tarjima bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, asosan, leksik xususiyatlarga e'tibor qaratiladi. Xususan, iqtisodiy terminlar, biznes leksikasi, inglizcha o'zlashmalar, evfemizmlar hamda iqtisodiy kontekstdagi metaforalarning qo'llanilishi atroflicha tahlil qilinadi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar iqtisodiy tilning o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning yana bir muhim yo'nalishi - iqtisodiy matnlarning turli janrlarini tarjima qilishdir. Bunga press-revizlar, o'quv adabiyotlari, gazeta maqolalari, biznes yozishmalari, shuningdek, savdo-iqtisodiy hujjatlar kiradi. Ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilgan ishlar tarjimon duch kelishi mumkin bo'lgan qator masalalarga, jumladan diskursiv xususiyatlarni tahlil qilish, ritorik vositalarning tarjimasini, ekvivalent tanlashdagi murakkabliklarga e'tibor qaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "iqtisodiy tarjima" tushunchasi hali to'liq shakllanmagan ilmiy kategoriya hisoblanadi. Turli tadqiqotchilar ushbu sohaning konseptual chegaralarini belgilashga harakat qilayotgan bo'lsalar-da, tarjima nazariyasida bu atamaning yagona va aniq ta'rifi hali mavjud emas. Bundan tashqari, iqtisodiy tarjimaning nazariy va amaliy jihatlari ham to'liq yoritilmagan.

Shu sababli ushbu maqolaning asosiy maqsadi - "iqtisodiy tarjima" atamasining mazmunini aniqlashtirish, uning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirish hamda iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayonidagi o'ziga xos amaliy jihatlarni ko'rsatib berishdan iboratdir.

An'anaviy ravishda "tarjima" atamasi ikki nuqtayi nazardan talqin qilinadi: jarayon sifatida va natija (mahsul) sifatida. Webster's New World lug'atida ushbu atamaga quyidagicha ta'rif beriladi: "bir tilni boshqasiga o'girishning harakati, jarayoni yoki holati, ya'ni bir tildan ikkinchisiga ko'chirish hamda bunday ko'chirish natijasida yaratilgan matn." Boshqacha aytganda, tarjima "asl (manba) matnni boshqa tilga o'girish jarayoni" va "matnning tarjima qilingan shakli" sifatida tushuniladi.

Tarjima jarayon sifatida murakkab nutqiy-lisoniy faoliyatdir. Peter Newmarkning ta'kidlashicha, "qoniqarli tarjima har doim mumkin, biroq yaxshi tarjimon hech qachon undan to'liq qoniqmaydi. Tarjima har doim takomillashtirilishi mumkin. Mukammal, ideal yoki mutlaqo 'to'g'ri' tarjima degan tushuncha mavjud emas. Tarjimon doimo o'z bilimini kengaytirishga, ifoda vositalarini boyitishga, so'z va faktlarni izlashga intiladi. U bir vaqtning o'zida to'rt darajada ishlaydi. Tarjima, avvalo, faktlar va ularni ifodalovchi tilni bilish hamda tekshirishni talab etadigan ilmiy jarayondir - bu yerda haqiqatga zid xatolarni aniqlash mumkin. Ikkinchidan, tarjima tilning mos qo'llanishi va me'yoriy ifodalanishini talab qiladigan mahoratdir. Uchinchidan, tarjima adabiy saviyani belgilovchi san'at bo'lib, unda ijodkorlik, intuitivlik hamda ba'zan ilhomga asoslangan ijodiy daraja namoyon bo'ladi. Nihoyat, tarjima did masalasidir - bu bosqichda bahslar to'xtaydi, shaxsiy did va afzalliklar ifodalanadi hamda turli qimmatli tarjimalarning mavjudligi tarjimonlar o'rtasidagi individual farqlarni aks ettiradi." Muallif bu yerda tarjimon katta mehnat talab qilinadigan ko'p bosqichli murakkab jarayonni ko'rsatadi.

Shuningdek, olimlar tarjimaning asosiy maqsadi "xalqaro ikki tilli madaniyatlararo muloqot vositasi bo'lib xizmat qilish" ekanini qayd etadilar. Bu kontekstdagi tarjimonlar "turli madaniy hamjamiyat vakillarining o'zaro muloqotini ta'minlaydilar. Ular og'zaki va noverbal xulq-atvor, kutilmalar, bilimlar va dunyoqarashlardagi farqlar sababli xabarlovchi va qabul qiluvchi o'rtasida samarali aloqaga to'sqinlik qilayotgan vaziyatlarda mazkur bo'shliqni to'ldiruvchi ko'prik vazifasini bajaradilar." Demak, tarjima madaniyatlararo muloqot jarayoni bo'lib, unda tarjimon vositachi sifatida faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari, tarjima jarayoni manba tilidagi xabarning mazmuniga imkon qadar yaqin bo'lgan tabiiy ekvivalentni maqsad tilida yaratishga qaratilganini ta'kidlash zarur. Shu sababli tarjima ekvivalentlikka intiladi, biroq til va madaniyat farqlari tufayli u hech qachon manba matnga to'liq mos bo'la olmaydi.

Tarjima natija sifatida - manba matnni boshqa tilda qayta yaratish uchun yaratilgan maqsad tilidagi matndir. U manba matnga ekvivalent bo'lishi lozim, ammo til va madaniyatdagi tafovutlar sababli ular o'rtasida to'liq bir xil shakl bo'lishi mumkin emas.

Tarjimaning o'ziga xos jihatlarni hisobga olgan holda, uning eng muhim farqlari og'zaki tarjima -ya'ni interpretatsiya bilan qiyoslaganda yaqqol ko'rinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarjima va interpretatsiya o'rtasidagi eng muhim farqlardan biri -vaqt omilidir. Olimlar ta'kidlaganidek, yozma tarjimada cheklanmagan vaqt mavjud bo'lib, bu tarjimonga lug'atlar, ma'lumotnomalar va qo'shimcha



manbalardan foydalanish imkonini beradi. Aksincha, interpretatsiya jarayoni insonning psixolingvistik mexanizmlari keskin, tezkor rejimda ishlashini talab qiladi.

Yozma tarjimon, avvalo, matnni o'qiydi, tahlil qiladi, umumiy mazmunga doir taxminiy model ishlab chiqadi. Keyin maqsad tilida matn yaratadi va uni mazmuniy aniqlik, soddalik va stilistik muvofiqlik nuqtayi nazaridan tekshiradi hamda zarur bo'lsa qayta ishlaydi. Demak, tarjimon strategiya haqidagi qarorlarini o'ylab chiqish uchun zarur vaqtdan foydalanadi.

Bundan tashqari, yozma tarjima interpretatsiyaga nisbatan ancha yuqori darajada ekvivalentlikni talab qiladi. Tadqiqotchilar yozma tarjimada funksional va stilistik moslik doimo kutilishini ta'kidlaydilar. Og'zaki tarjimada maqbul bo'lishi mumkin bo'lgan qisqartirish va soddalashtirishlar yozma tarjimada qabul qilinmaydi. Shuningdek, og'zaki tarjimada denotativ tarjima modeli keng qo'llanadi. Ushbu modelga ko'ra, interpretator manba tilidagi fikrning qanday shaklda ifodalanganiga e'tibor bermasdan, mazmunni maqsad tilining normativ qoidalariga tayanib yetkazadi. Ko'pincha interpretatsiyada manba matn muallifining individual uslubi aks ettirilmaydi.

Yozma tarjimada ekvivalentlik talablari yuqori bo'lganligi sababli, tarjimon nafaqat manba matn mazmunini to'g'ri yetkazishi, balki uni lokalizatsiya qilishi - ya'ni matnni maqsad auditoriyasi uchun moslashtirishi lozim. Bu moslashtirish mazmun, til varianti, stilistik registr va tushunish darajasi kabi omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shunday qilib, tarjimani interpretatsiyadan farqlovchi asosiy belgileridan biri - yakuniy matnning yuqori darajadagi ekvivalentligidir.

Yana bir farqlovchi jihat shundan iboratki, tarjima qilinadigan matnlar odatda murakkab funksional uslub va janrlarga mansub bo'ladi: ilmiy maqolalar, hujjatlar, biznes yozishmalari va boshqalar. Bunday matnlar, deyarli har doim, faqat yozma shaklda tarjima qilinadi. Bu tarjimaning yana bir xususiyatini - turli murakkab matnlarni qayta yaratishga yo'naltirilgan jarayon ekanini ko'rsatadi.

Shubhasiz, iqtisodiy tarjima umumiy tarjima jarayoniga xos barcha belgilarga ega. Aks holda, u madaniyatlararo ikki tilli muloqot jarayoni sifatida mavjud bo'la olmagan bo'lardi. Shu sababli iqtisodiy tarjima madaniyatlararo ikki tilli muloqotning ko'p bosqichli murakkab jarayoni bo'lib, uning maqsadi - maqsad tilida manba matnga imkon qadar yaqin tabiiy ekvivalent yaratishdir.

Iqtisodiy tarjima, shuningdek, turli funksional uslub va janrlarga mansub yozma matnlarni yetarli vaqt sharoitida yuqori darajadagi ekvivalentlik bilan qayta yaratish jarayonidir.

Tarjimaga xos umumiy xususiyatlardan tashqari, iqtisodiy tarjima o'ziga xos jihatlarga ham ega. U **fanlararo** tadqiqot va amaliyot sohasi hisoblanadi. Haqiqatan ham iqtisodiyot sohasi biznes, iqtisodiy jarayonlar, savdo va tijorat kabi turli faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

### **IQTISODIY TARJIMA - AMAL QILISH SOHASI: TURLI FAOLIYAT YO'NALISHLARI- JANR-STIL XILMA-XILLIGI**

#### **2-JADVAL. IQTISODIY TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Aspekt	Tarjima – jarayon sifatida	Tarjima – mahsul sifatida
<b>Mazmuni</b>	Ko'p bosqichli, madaniyatlararo ikki tilli muloqot jarayoni	Manba matnning maqsad tilidagi ekvivalenti

<b>Vazifasi</b>	Har xil funksional uslub va janrdagi yozma matnlarni qayta yaratish	Manba matnни boshqa tilda ifodalovchi tayyor matn
<b>Talab darajasi</b>	Yuqori darajadagi ekvivalentlikni talab qiladi	Til va madaniyat farqlari sababli to'liq bir xil bo'lishi mumkin emas
<b>Tabiati</b>	Dinamik, tahliliy, ko'p bosqichli lisoniy faoliyat	Yakuniy matn (maqsad tilidagi mahsulot)
<b>Cheklovlar</b>	Semantik, pragmatik, stilistik tahlilni talab qiladi	To'liq identiklikka erishib bo'lmaydi

Quyidagi muhokama iqtisodiy tarjimaning amaliy masalalarga taalluqli o'ziga xos jihatlariga qaratiladi.

Tarjima xatolari ikkinchi tilni spontan qo'llash jarayonida yuzaga keladigan xatolardan farq qiladi. Chunki "tarjima xatolarining aksariyati manba tilidagi birliklar bilan maqsad tilidagi birliklar o'rtasidagi mos kelmaslik natijasida yuzaga keladi". Biroq ensiklopedik bilimga ega bo'lgan, shuningdek manba va maqsad tillarining lisoniy tizimini yaxshi biladigan tarjimonlar bunday holatlarni boshqarishni biladilar. Shu sababli "xatolar tarjima sifatini ko'rsatishi mumkin, biroq ayni paytda tarjimonning tafakkur jarayonida nimalar sodir bo'layotganini ham ochib berishi mumkin".

Andreea-Rosalia Oteanu fikriga ko'ra, tarjima xatolarining manbalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Ingliz matnini o'qish bosqichi.** Tarjima jarayonidagi xatolarning katta qismi aynan ushbu bosqichda yuz beradi. Buning sababi - tarjimonning o'qish jarayoni yetarlicha rivojlanmaganligi bo'lib, bu manba matnning maqsad tiliga noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Ushbu bosqichdagi xatolar quyidagi toifalarga bo'linadi:

2. **.Noto'g'ri o'qish (miscue)**

Goodman tomonidan joriy qilingan ushbu atama o'quvchi matnни o'qiyotganda qiladigan **noto'g'ri taxminni** anglatadi. Masalan:

- *program* so'zi *performance* deb o'qilishi,
- *ready* so'zi *reading* deb qabul qilinishi,
- *county* so'zi *country* tarzida noto'g'ri talqin qilinishi va boshqalar.

Bunday **noto'g'ri o'qish (miscue)** xatolari ko'proq yangi boshlovchi o'quvchilar orasida uchraydi. O'qish ko'nikmasi rivojlangach, bunday xatolar kamayadi.

3. **Tarjimonning fon bilimga nisbatan noto'g'ri taxmini**

Tajribali tarjimon har doim ensiklopedik bilimni izlab topishga intiladigan qiziquvchan tafakkurga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, manba matnни to'g'ri talqin qilish uchun zarur bo'lgan fon bilim yetarliligi shart.

Shu vaqtgacha yetakchi tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatilgan ikki asosiy xato manbasi bizni "Iqtisodiyot" va "Savdo" yo'nalishida professional ravishda og'zaki tarjima o'qiyotgan talabalar orasida tez-tez uchraydigan xatolarni amaliy jihatdan tahlil qilishga undadi.

Ularning tarjima ishlarini o'rganish jarayonida xatolarni eng ko'p uchraydigan holatlarga ko'ra tasniflash imkoniga ega bo'ldik. Bu xatolar ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni aks ettiruvchi xos belgilar sifatida qaralishi mumkin.



Eng keng tarqalgan birinchi xato - matnni tarjima qilishdan **avval pragmatik tahlilni amalga oshirmaslik**dir. Manba matnning kommunikativ funksiyasini aniqlovchi omillar, ya'ni:

- muallifning maqsadi,
- auditoriya,
- axborotning yetkazilish vositasi,
- joy, vaqt, vaziyat,
- matnning funksiyasi

kabi **ekstratekstual o'lchamlar** matn tahlilida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yosh tarjimonlar aksariyat hollarda tarjimaga kirishishdan oldin ushbu muhim tafsilotlarni aniqlashtirmaydilar. Bu esa quyidagi xatolarga olib keladi:

• voqea vaqtini noto'g'ri tarjima qilish (hozirgi zamon o'rniga o'tgan zamon va aksincha),

• axborot manbasini noto'g'ri talqin qilish: masalan, "The Daily Telegraph", "The Independent on Sunday", "The Times" kabi gazeta nomlari ko'pincha **jurnal yoki veb-sayt** sifatida noto'g'ri tarjima qilinadi.

Yana bir qo'pol xato -matnning **motive (yozilish sababi), janri va mavzusini** noto'g'ri tushunishdir.

Ko'pgina iqtisodiy maqolalarda *motive* shundan iboratki, mazkur materiallar muhim voqea sodir bo'lganligi sababli yozilgan axborot xabarlaridir. Matnning janri - strukturaviy jihatdan **axborot beruvchi gazeta maqolasidir**. Mavzu esa maqola sarlavhasida aniq ko'rsatiladi.

Misol tariqasida:

**"Trading Economics Across the Atlantic: Jan Tinbergen and Milton Friedman"** sarlavhali maqola ba'zi talabalar tomonidan **"Atlantika okeani orqali iqtisodiy faoliyat yuritish"** deb noto'g'ri talqin qilingan. Aslida maqola Atlantika okeani bo'ylab joylashgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka bag'ishlangan edi.

Leksik ma'no bilan bog'liq xatolarga kelsak, eng ko'p uchraydigan xatolar iqtisodiy terminlarning noto'g'ri talqin qilinishi bilan bog'liq. Bu ayniqsa **biznes huquqi va yuridik shaxs shakllariga** doir tushunchalarda yaqqol ko'rinadi. O'zbekistonning huquqiy tizimi boshqa davlatlardan farq qilgani sababli, tarjimonlar tomonidan yuridik atamalarni moslashtirish jarayonida xatolar ko'p uchraydi.

Masalan, ayrim davlatlarda uchraydigan **"SA (Société Anonyme)"** atamasi - aksiyadorlik jamiyati turini anglatadi. Ammo ba'zi offshor hududlarda ushbu qisqartma **cheklangan mas'uliyatli jamiyat** ma'nosida ishlatiladi. O'zbekiston kontekstida bu termin ko'pincha **"AJ" (Aksiyadorlik jamiyati)** yoki **"MChJ"** (Mas'uliyati cheklangan jamiyat) shaklida tarjima qilinadi. Shuning uchun tarjimon atamani to'g'ri moslashtirish uchun **qaysi davlatning huquqiy tizimi** nazarda tutilayotganini aniqlashi shart.

Xuddi shuningdek, **"publicly traded company"** atamasi ham ko'p noto'g'ri tarjima qilinadi. Bu ibora **aksiyalari fond bozorida erkin muomalada bo'lgan kompaniyani** anglatadi. O'zbekiston sharoitida bunday kompaniyalar **"ochiq aksiyadorlik jamiyati (OAJ)"** deb yuritiladi. Demak, iborani "erkin sotiladigan kompaniya" deb tarjima qilish semantik xatoga olib keladi.

Leksik talqindagi muammolarning yana bir qismi iboralar, metaforalar va barqaror birikmalar bilan bog'liq. Masalan:

- *"Economics was to be a better vehicle than physics."*

Bu yerda "vehicle" so'zi **"transport vositasi"** emas, balki **"vosita", "yo'l", "usul"** ma'nosida qo'llangan.

- *"It earned him the first Nobel Prize..."*

"Earn" so'zi bu yerda "pul ishlamoq" ma'nosida emas, balki **"obro'-e'tibor keltirmoq", "mukofotga sazovor bo'lishga sabab bo'lmoq"** ma'nosida ishlatilgan.

Yana bir misol:

• *"Strategic intelligence initiatives"* iborasida "intelligence" so'zi "razvedka" sifatida emas, balki **"analitik ma'lumotlar", "tahliliy salohiyat"** kontekstida tushunilishi kerak.

Ayniqsa, **frazeologik birikmalar va phrasal verblar** tarjimonda ko'p qiyinchilik tug'diradi. Masalan:

• **"get off the ground"** - "erga qo'nmoq" emas, balki **"yo'lga qo'yilmoq", "ishga tushmoq"** ma'nosini bildiradi.

- **"squeeze public spending"** - **"davlat xarajatlarini qisqartirmoq"**

• **"prune the welfare system"** - **"ijtimoiy ta'minot tizimini optimallashtirish/qisqartirish"**

O'zbekiston kontekstida iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar quyidagilar bilan bog'liq:

- iqtisodiy tushunchalar va terminlarning mazmunini chuqur anglash qiyinligi,
- O'zbekiston iqtisodiy-huquqiy tizimi bilan boshqa davlatlar tizimi o'rtasidagi tafovutlar,
- murakkab va uzun jumalarni tahlil qilishdagi qiyinchiliklar,
- fon bilim (background knowledge)ning yetishmasligi,
- maqola tafsilotlarini aniqlashtirmasdan tarjimaga kirishish.

Raqamli texnologiyalar, tarjima dasturlari va internet manbalari tarjimani yengillashtirgani bilan, ular ba'zan talabalar fon bilimga tayangan holda fikrlash jarayonini susaytiradi. Shu sababli, iqtisodiy tarjima bo'yicha malakali mutaxassis yetishtirishda o'qituvchining roli juda muhim bo'lib, u talabada qiziqish, izlanish va analitik tafakkurni shakllantirib borishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода: проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых. – М., 1999, Комиссаров В. Н. Слово о переводе. М. 1973, Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М 2004, Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М., 1990.
2. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода: проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых. – М., 1999.
3. Abduganiyeva J.R. Consecutive Interpretation Quality Assessment Within Training Process. ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2023. – №1/7. – Б. 22-25.
4. P. Newmark, A Textbook of Translation (Prentice Hall, London, 1988)
5. M.A. Sim, A.M. Pop, Managing Problems when translating economic texts, URL: <http://anale.steconomieuoradea.ro/volume/2012/n 2/021.pdf>



## Section-6: Digital Linguistics and Current Trends in Philological Research

6. C. Nord, *Iha do Desterro* 33, 41-55 (1997) 19. E.A. Nida, *Readings in General Translation Theory* 2, 153-162 (1988)
7. V.N. Komissarov, *Modern Translation Science* (ETS, Moscow, 2004) 21. L.K. Latyshev, *Translation: Problems of Theory, Practice and Methods of Teaching* (Prosveshcheniye, Moscow, 1988)
8. R.K. Minyar-Beloruchev, *Theory and Methods of Translation* (Moskovskiy Litsey, Moscow 1996)
9. D. Gile, *Translation Research and Interpreting Research: Traditions, Gaps and Synergies*, 10-34 (2004)